

фразеологизмы также многозначны и многофункциональны. Подходящие по содержанию корейские фразеологизмы не всегда взаимозаменяемы в переводе.

Frazeologizmning eng asosiy vazifalaridan biri-soʻzlovchining boshqa odamlarga va muloqat predmetiga munosabatidir. Frazeologizmlar birdan ortiq soʻzdan tashkil topishini koʻrdik. Leksik frazeologizmlar tarkibidagi soʻzlarning leksik-grammatik imkoniyatlari, ularning toʻgʻri maʼnolari asosida birikishidan hosil boʻlmaydi. Shuning uchun ham frazeologizmlarning maʼnosi uning komponentlari maʼnosi tarkibidagi soʻzlar maʼnosidan iborat boʻlmaydi:

M: 머리가 젖다 (boshi hoʻl boʻlmoq) - biror xil gʻoya yoki xurofat kabilaridan rang olmoq, 코가 우뚝하다 (burni koʻtarilmoq) –takkaburlik qilmoq. [3, 56]

Frazeologizmlarning maʼnosi tarkibidagi soʻzlar maʼnolaridan kelib chiqmaydi. Chunki frazeologizmlar soʻz birikmasi tarkibidagi biror soʻzni yoki butun birikmani maʼlum bir obraz asosida koʻchma maʼnoda qoʻllash yoʻli bilan hosil boʻladi, uning maʼnosi ham shu yoʻl bilan yuzaga keladi. Frazeologizmning maʼnosi, frazeologizm tarkibidagi soʻzning koʻchma maʼnoda qoʻllanishi natijasida yuzaga kelgan boʻlsa, frazeologik maʼnoni frazeologizm komponentlari maʼnolaridan keltirib chiqarish mumkin boʻladi 머리를 숙이다 (boshni egmoq) -rozi boʻlmoq yoki hurmat ehtirom koʻrsatmoq, 가슴이 아프다 (qalbi ogʻrimoq)-qalbning kuchli ogʻrishi kabilar. [4, 45]

Frazeologizmlar yuqoridagidek komponentlarning koʻchma maʼnoda qoʻllanishi, shuningdek, boshqa yoʻllar bilan xam paydo boʻlishi mumkin. Bunday frazeologizmlar maʼnosini tarkibidagi soʻzlar maʼnolari umumlashmasidan keltirib chiqarib boʻlmaydi. Frazeologizm va uning maʼnosi soʻz birikmasini yaxlitligicha koʻchma qoʻllash asosida xosil boʻlishi mumkin. Bunday frazeologizmlarning maʼnosini xam komponentlar maʼnosida chiqarib boʻlmaydi. [1, 96]

Koreys tili somatik frazeologizmlarining maʼnolarini koʻrib chiqish jarayonidan oldin frazeologik maʼno bilan bogʻlik baʼzi tushunchalarga izox berib oʻtsak. Frazeologizimning maʼno butunligini koʻrib chiqish jarayonida frazeologik obrazning ichki formasi muammolari paydo boʻladi. “Maʼno butunligi frazeologizmning asosida yotuvchi real yoki noreal obrazini rasshifrovka qilish natijasida kelib chiqadi”. 머리를 쓰다 - kallani ishlatmoq, 발이 뜰하다 -oyoqni uzmoq, 발을 끊다 -oyoqni uzmoq, 손에 손을 잡다 – qoʻlni qoʻlga bermok. [5, 65]

Koreys tili somatik frazeologizmlari orasida shunday frazeologizmlar mavjudki, ular tarkibiy tuzilishi jihatdan biroz murakkab boʻlishi bilan birga ularning maʼnosi tushunish biroz qiyindir. Quyida shunday frazeologizmlarni keltiramiz. 눈 뜨고 볼 수 없다 - bu frazeologizm

odamning ko‘zi oldidagi lavha dahshatli va achinarli darajada bo‘lganligidan, ko‘ngli noxush bo‘lib ko‘zga hech narsa ko‘rinmaslik. 눈에 넣어도 아프지 않다 -frazelogizmlarning so‘zma-so‘z tarjimasi “ko‘zga qo‘ysi ham og‘rimaydi”. Bu frazeologizm “juda yoqimli”, “yoqimtoy” degan ma’nolarni ifodalaydi. Odatda bu frazeologizm yosh bolalar yoki qiz bolaga nisbatan qo‘llaniladi. Frazelogizmning ma’nosi shunday izohlash mumkin, odatda ko‘zga biror maydagina zarracha kirsam ham og‘riydi. Ammo yoqtirmaydigan hatto ko‘zga qo‘ysam ham, ko‘z og‘rimaydi. 눈에 쌍심지를 켜다 -bu frazeologizm, g‘azablangan odam ko‘zlarining kuchli chaqnashi yoki yonishi holatini ifodalaydi. 가슴이 두근반 세근반하다 - frazeologizmi yurakning kuchli urishi yoki dukillab urishini ifodalaydi. 가슴이 콩알 만하다 - ushbu frazeologizm, odamning notinch bo‘lib, o‘zini erkin his qilolmaslik holatini ifodalaydi.

Frazelogik obraz birlikni, uni tashkil qiluvchi komponentlarning real ma’nolari ma’nolari bilan bog‘laydi. Frazelogik ma’noni tashkil qilish borasida, frazeologik birliklarning ikki guruhi mavjud. Ular o‘rtasidagi farq shundaki, ulardan biri erkin so‘z birikmasining metafora uyli bilan frazeologik birlikka aylanishi, ikkinchisi esa erkin muomaladagi so‘zning ko‘chma ma’nodagi qo‘llanishi natijasida xosil bo‘lgan frazeologik birlikdir. Bu frazeologik birlik guruhlarini bir-biridan frazeologik ma’noning tashkil topish mexanizmi va frazeologizimning ma’no butunligi tuzilishi jarayonida obrazning qatnashish darajasi bilan farq qiladi.

Frazelogik obraz-frazelogik ma’noning vujudga kelishi va komponentlarni tushunishda ro‘y beradigan semantik asosdir. Obrazni tushunishda chalg‘ish, so‘zning ichki formasi asosidan chetga chiqish kuzatiladi. Obraz har doim ham har bir komponentning ma’nosidan kelib chiqmaydi. Buning natijasida frazeologizmning umumiy ma’nosi shunday so‘zlar bilan berilishi mumkinmi, ular qarab chiqilayotgan frazeologizmning tarkibida komponent sifatida bo‘lmaydi. Umuman frazeologik obraz quyidagicha belgilanadi:

1. frazeologik ma’no butunligi darajasi,
2. komponentlarning semantik erkinligi darajasi.

Frazelogik obraz (ichki forma) ning mavjudligi yoki mavjud bo‘lmashligi frazeologik ma’no butunligi darajasiga ta’sir qiladi. Ichki formaga ega frazeologizmlarning frazeologik ma’no butunlik darajasi ko‘proq bo‘lib, komponentlarning semantik erkinlik darajasi esa kamroqdir. Ichki formaga ega bo‘lmagan frazeologizmlarning frazeologik ma’no butunligi darajasi esa kamroq bo‘lib, komponentlarning semantik erkinlik darajasi esa ko‘proqdir.

Frazelogizmning eng asosiy vazifalaridan biri-sozlovchining boshqa odamlarga va muloqat predmetiga munosabati ekanligini unutmaslik kerak. Frazelogik birlikning bunday konnotativ-baholash imkoniyatlarini obrazlilik xususiyati bilan bog‘liq. Obrazlilik ko‘pgina

frazeologizmlarning ob'ektiv xususiyati sifatida ko'rgazmali tasavvurlarda, predmet va narsa-buyumlar assosiyatsiyasida amalga oshadi. Bunday holatni koreys tili somatik frazeologizmlarning ko'pchiligida ko'ramiz. Ayniqsa konnotativ xususiyatga ega bo'lgan frazeologizmlar ko'pdir.

“Konnotatsiya” atamasi tilshunoslar tomonidan turlicha tushiniladi. Bu-ekspressivlik, emotsiya, baho, shuningdek, ob'yektiv olamga, muloqat predmetga, suhbatdoshga, nutuqning vaziyatga va boshqalarga munosabatning murakkab uyg'unligidir. Umuman tilshunoslikda “konnotatsiya” atamasibilan ko'rsatilgan barcha narsalar. Ko'pgina olimlar konnotatsiyani tillning semantik birligiga bag'ishladi, lekin bu erda olimlar, takibidagi qaysi komponentlar konnotativ hisoblanadi degan fikr qo'ydilar. Konnotatsiyaga odatda emotsional obrazli, emotsional baholovchi va ruhiy jihatdan baholovchi tarkiblar kiradi. Ba'zan xuddi konnotatsiya sifatida so'zning stilistik xususiyati va frazeologik birliklar ham talqin qilinadi. [2, 56]

Konnotativ komponent frazeologik birliklarga ekspressiv-stilistik, obrazli-ekspressiv, emotsional va baholovchi imkoniyatlarni qo'shadi. Ekspressivlik konnotatsiyaning komponenti sifatida tushuniladi. Uning semantik vazifasi mazmunni kuchaytirish hisoblanadi. Bu biz tahlil qilayotgan ko'pgina somatik frazeologik birliklarning o'ziga xosligidir. Ekspressivlik sub'ektning fikriga nisbatanemotsional munosabatni ifodalovchi sifatida qaraladigan emotivlikka uzviy bog'liq. Har bir frazeologik birlikka o'ziga xos bo'lgan ekspressivlik va emotivlik, ularning formasiga tegishlidir.

Frazeologik ma'no vujudga kelishining butun murakkab mexanizmini hisobga olish zarur. U frazeologik birlik semantik strukturasining muhim jihatlari—ichki shakl, frazeologik ma'noning til asoslari, frazeologik abstraksiyasi bilan o'zaro bog'liqdir. Frazeologik ma'no shakllanishi mexanizmi belgilaydigan faktorlar shuni ko'rsatadiki, ular frazeologik birlik tarkibida turli komponent so'z semalariga asoslanishi mumkin. Bu semantik komponentlar imkoniyati frazeologik ma'no yadrosiga kirishi yoki undan chetgi o'rinni egallashi, ichki shakl darajasida ishlashi, frazeologizm shakllanishi jarayoni yoki frazeologik birlikning individual semantik strukturasining o'ziga xosligi bilan belgilanadi. [2, 85]

Xulosa. Shunday qilib, frazeologik birlik ma'nosi har doim shunday tarkibdagi erkin so'z birikmasi bilan bog'liq. Bu aloqa ko'pincha ba'zi frazeologik ko'rinishlarni tasniflash mezonini hisoblanadi. Frazeologik birlikning (shunday leksik tarkibdagi) so'z birikmasi bilan aloqasi, bu-frazeologik ma'noning erkin so'z birikmasi ma'nosidan kelib chiqishidan iborat. Bu frazeologik ma'noning muhim xususiyati bo'lib, frazeologizimning obrazlilikini, uning ekspressivlik va frazeologizmning milliy o'ziga xos yaxlitligini belgilaydi.

Frazeologizmlar nutqda yaratilmay, balki tilda tayyor holda mavjudligini aytadigan bo'lsak, koreys tilini o'qitish jarayonida frazeologizmlarga alohida to'xtalib o'tish lozim. Chunki frazeologizmlar har kungi darsda o'tilgan hikoya va dialoglarda muntazam uchrab turadi, ammo ularga etarlicha e'tibor berilmaydi. Xuddi grammatik qoidalarni tushuntirgandek, ularga ham atroflicha to'xtalib o'tilsa maqsadga muvofiq. Umuman ushbu mavzu hozirda koreys tilini o'rganishda dolzarb mavzu bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Чой Юн Хи. Проблемы сопоставления внутренних формы фразеологизмов. // Язык сознание коммуникация. Выпуск 16. Москва> Макс Пресс. 2001.
2. Чой Юн Хи. Фразеологический образ в коннотативном аспекте// Язык сознание коммуникация. Выпуск 17. Москва. Макс Пресс. 2001.
3. 김종택. 국어 어휘론. 서울.(주) 탈출판사. 1992.
4. 이기문. 새국어사전. 서울. 2004. -2150 b.
5. 김정숙 외 6 명, “외국인을 위한 한국어 문법 1”. -서울:커뮤니케이션북스. 2005 B-575 쪽.
6. Usmonqulovna, B. D., & Qizi, Q. L. Z. (2024). KOREYS TILIDA OT, SIFAT VA BOSHQA SO 'Z TURKUMLARIDA POLISIMIYA HODISASINING IFODALANISHI. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 2(2), 49-54.
1. 김종택. 국어 어휘론. 서울.(주) 탈출판사. 1992.
2. 이기문. 새국어사전. 서울. 2004. -2150 b.
3. Usmonqulovna, B. D., & Qizi, Q. L. Z. (2024). KOREYS TILIDA OT, SIFAT VA BOSHQA SO 'Z TURKUMLARIDA POLISIMIYA HODISASINING IFODALANISHI. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 2(2), 49-54.
4. Базарова, III. (2024). Судьба женщины в рассказах Айдын Собировой. Зарубежная лингвистика и лингводидактика, 2(2/S), 24-28.
5. Shuxratovna, B. S. (2024). O 'ZBEK VA KOREYS MAQOLLARIDA GENDERLIK MASALASI. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 2(2), 83-86.